

09\_27776/2 140-SON  
TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'GRISIDA ABONENT  
SHARTNOMASI

*Yuridik shaxslar (shu jumladan, budget tashkilotlari) uchun*

2022 yil «2» *aprel*

2022-31-12-170-  
OB-son

Bog'ot shaharchasi

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniya (keyingi o'rinlarda - Kompaniya) nomidan 05.01.2021 yildagi 27-01-14/33 - son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Xorazm filiali direktori **Samandarov Axmadjon Sultanovich** (keyingi o'rinlarda-Operator) bir tomondan va **Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshkarmasi** nomidan ustav (nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi raxbar **O.Avezov**, (keyingi o'rinlarda-Abonent) ikkinchi tomondan (keyingi o'rinlarda birgalikda-Tomonlar) telekommunikatsiya xizmatlar ko'rsatilishi bo'yicha quyidagilar haqida Abonent shartnomasini tuzdilar:

### 1.Shartnoma predmeti

1.1 .Abonent ushbu Shartnomani imzolab:

-Operatorning [WWW.UZTELECOM.UZ](http://WWW.UZTELECOM.UZ) rasmiy veb-saytida e'lon kilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367- 369-moddalariga muvofiq "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo'lgan ommaviy ofertasi (keyingi o'rinlarda - oferta) shartlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida shartnoma tuzadi;

-Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent Dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faqtini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy xujjatni olishi Operator Ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilishi (akseptniy) xisoblanadi.

1.2. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarda ushbu shartnomani imzolaganidan so'ng, Operator Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilganidan so'ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati doirasida o'z tanlovidan kelib chiqib, Dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi mumkin.

1.3. Xizmat ko'rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi xamda ushbu xizmatni taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjudligidan kelib chiqqan xolda belgilanadi.

### 2. Tomonlarning xuquq va majburiyatlari

2.1. Operator ushbu shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilangan xuquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.2. Abonent ushbu shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilangan xuquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.3. Tomonlar ushbu shartnoma amal qilish davrida, o'z xuquq va majburiyatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralarni amalga oshiradilar.

### 3. Xisob-kitob va to'lovlar tartibi

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Ofertaning 6-moddasiga muvofiq, xizmatlar (mobil aloqa xizmati bundan mustasno) ko'rsatilganidan keyin to'lovni amalga oshirish (Postpaid) tizimi shartlari tatbik etiladi.

3.2. Tariflar Abonent bilan shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan xisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan barcha soliqlar va yig'implarni o'z ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent to'lovi birinchi oyda ushbu shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 3 (uch) bank kuni mobaynida amalga oshiriladi.

3.3.1. Ilk bor ulanishda Abonent tulovi 100 ( yuz) foiz miqdorida oldindan to'lanadi. Dastlabki avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnoma (xisob) asosida xamda ushbu shartnomaning tegishli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) ko'rsatilgan miqdorga muvofiq xar bir tanlangan xizmat turi uchun aloxida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. Budget tashkiloti bo'lgan Abonent uchun shartnomaning umumiy summasi ushbu shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar xajmi bilan belgilanadi. Shartnomaning umumiy summasi (KKSni xisobga olgan xolda) **165 000( Bir yuz oltmish besh ming )** so'mni tashkil etadi. Ushbu summa **55 000**

( **ellik ming** ) so'm miqdoridagi Abonent to'lovini , xamda 0 ( nol) miqdoridagi bir martalik to'lovni o'z ichiga oladi.

3.4.1. Mazkur shartnomaning umumiy summasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summa tomonlar o'rtasida imzolangan qo'shimcha kelishuv taqdim etilgan xisob-faqtura asosida to'lanadi.

3.5. Abonent ushbu shartnomaga asosan yoki berilgan xisob-faqtura asosida xar oyda Operator tomonidan xisob-faqtura berilgan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida ushbu shartnomada ko'rsatilgan Operatorning Shaxsiy (elektron) xisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar xaqini to'laydi.

3.6. Agar Abonentning shaxsiy (elektron) xisob raqamida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmasa yoki mazkur shartnomaning 3.5-bandida ko'rsatilgan muddatda xar oylik xisob-faqtura bo'yicha to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, Operator ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatishi mumkin.

3.7. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirmasligiga asos bo'la olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator xizmatlaridan foydalanishni vaktincha to'xtatishni, shuningdek, xisobot davri (kalendar oyi) uchun istalmagan to'lovlarning oldini olishni istasa. Abonent xisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topishirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.8. Operator dan bonuslar ko'rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga takdim etilgan barcha mablag'lar faqat Operator xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to'lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9. Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar, shartnomaga muvofiq xar bir xizmat turi uchun aloxida rasmiylashtiriladigan xisob-faqtura bilan yopiladi. Xar bir xisob-faqturada taqdim etilgan xizmatlarning tuli qalendar oyi uchun umumiy miqdori ko'rsatiladi.

3.9.1. Agar Abonent 10 (kun) ish kuni mobaynida Operator tomonidan taqdim etilgan xisob-faqtura bo'yicha o'z e'tirozlarini yozma yoki elektron shakilda taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo'yicha xisob-faqtura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko'rsatilgan deb xisoblanadi. Abonentning e'tirozlari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi qalendar oyida taqdim etiladigan xizmatlar uchun to'lov talabnomasida (xisobida, xisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi. Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning shaxsiy (elektron) xisob raqamining balansi salbiy bo'lganida 1 (bir) qalendar oyidan oshmagan muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonentga xizmatlardan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

#### **4. Tomonlar javobgarligi**

4.1. Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu shartnomaga muvofik belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida xamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo'ladi (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish xolatlari bundan mustasno).

#### **5. Nizolarni xal qilish tartibi**

5.1. Tomonlarning ushbu shartnomani bajarish bilan bog'lik masalalar bo'yicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasi talablari asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofik xamda nizolarni sudgacha xal etish tartibiga rioya qilingan xolda o'zaro kelishuv orqali xal qilinadi.

5.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuv orqali xal etishning imkoni bo'lmagan takdirida, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

#### **6. Aloxida shartlar**

6.1. Tomonlar mazkur shartnomaning amal qilish davrida o'z xuquqlari va majburiyatlari bilan bog'lik ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun xujjatlari normalarini buzishi mumkin bo'lgan har qanday choralar ko'rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qat'iy e'tirof etgan xolda, o'zaro xamkorlik madaniyatini yuqori darajada ta'minlash va korrupsiya xolatlariga murossasiz kurashish choralari ko'radi.

6.2. Mazkur shartnomaning amal qilish davrida tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan xar qanday xolatlarda va xodisalarda (yengib bo'lmaydigan kuchlar fors-major xolatlari) Ofertaning 10-moddasi qoidalariga amal qilinadi.

6.3. Abonentning yozma elektron shaklda taqdim etilgan ariza e'tiroznoma shikoyat taklif ko'rinishidagi murojati ko'pi bilan 30 (o'ttiz) kun davomida ko'rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni ko'rib chiqish uchun 15 (o'n besh) kundan ortiq muddat talab etilsa, Abonent (murojaat muallifi) Operator tomonidan bu xaqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

#### **7. Yakuniy qoidalar**

7.1. Ushbu Shartnomaning barcha muxim shartlari Ofertaga muvofik belgilanadi. Ushbu shartnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan xollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga amal qiladi.

7.2. Ushbu shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan paytdan boshlab, kuchga kiradi va 31 – dekabr 2022-yilga qadar amal qiladi. Agar, shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugaganidan so'ng, tomonlar (budjet tashkiloti bo'lgan Abonentga tatbik etilmaydi) o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va tomonlarning xech biri uni bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, shartnoma xar bir keyingi yilga uzaytiriladi.

7.2.1. Budjet tashkiloti bo'lgan Abonent uchun ushbu shartnoma vakolatli davlat o'rganlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 31 – dekabr 2022 yilga qadar amal qiladi.

7.2.2. Abonent tomonidan ushbu Shartnomaning imzolanishi - Oferta akseptini (Abonentning Oferta shartlarini kabul qilganligi xakidagi javobini) bildiradi.

7.3. Ushbu shartnoma, shu jumladan, Operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Oferta, ilova va qo'shimchalar (agar mavjud bo'lsa) shartnoma predmeta yuzasidan Operator va Abonent o'rtasida to'liq shartnomani tashkil etadi.

7.4. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis xujjatlari (mulkdorlari) o'zgartirishda, shu jumladan tashkiliy-xukukiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan takdirda, Shartnoma o'z kuchida qoladi. Tomonlar bunday o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, 10 (o'n) ish kuni ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.5. Ushbu shartnomaga o'zgartirishlar va ko'shimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa) va ushbu xarakterlik Tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan xamda Tomonlarning muxrlari (mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiklangan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

7.6. Ushbu shartnoma davlat tilida, 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va xar bir Tomon uchun bitta nusxadan beriladi.

### 8. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

"O'zbektelekom" AK Xorazm filali	Bogot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
Manzili: Urganch shaxar Al Beruniy kocha 1-uy	Manzil: Bog'ot tuman Tinchlik ko'cha 2-uy
Tel/faks: 1155	Tel./faks: 31-51-818
sh/r: 20210000404074838396	sh/h: 10002286033204706520011001
STIR 203366731 Bank nomi: ATB "Aloqabank" MFO 00401	STIR 206943827 OKONX 92310 G'aznachilik bo'linmasi nomi Bog'ot tuman bo'yicha Gaznachilik bo'linmasi G'azna h/v 23402000300100001010
	Banking nomi: Markaziy bank Toshkent MFO 00014 INN:201122919

Raxbar



A.Samandarov

Raxbar



O.Avezov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA № GG60733657**

1. Loyiha turi: **Shartnoma**
2. Loyiha nomi: Telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatilishi to‘g‘risida abonent shartnomasi №09\_27776/2 140-son (Internet xizmati)
3. Loyihaning ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma‘lumot:  
**Bog‘ot tuman obodonlashtirish boshqarmasi** tomonidan 2022-yil 2-fevralda ishlab chiqilgan va 2022-yil 2-fevral kuni dasturga kiritilgan.  
Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik xizmat  
ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti**



**D.Matiyazov**  
02.02.2022 yil